

INNOVATSIYALARNI STRATEGIK BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

Shakirova Madinaxon

Xalqaro Nordik universiteti
ORCID: 0009-0002-6589-487X

madinochka_90@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsiyani strategik boshqarishning nazariy asoslari, konseptual yondashuvlari hamda uning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'rni tahlil etilgan. Innovatsiya tushunchasining mohiyati, mazmuni va unga doir ilmiy yondashuvlar tizimlashtirilib, "innovatsiya"ni jarayon, natija, tizim, vosita va o'zgarish sifatida talqin etuvchi ilmiy qarashlar solishtirilgan. Shuningdek, innovatsiyalarni tadbirkorlik subyektlarida strategik boshqarishning o'ziga xos jihatlari, innovatsion salohiyatni shakllantirishda muhim omillar va me'yoriy-huquqiy asoslar o'rganilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning (Komarov, Komkov, Asimova, Glazyev, OECD/Eurostat va boshqalar) qarashlari tahlil qilinib, innovatsiyalarni boshqarishda tizimli va evolyutsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, strategik boshqaruv, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion jarayon, innovatsion tizim, texnologik yangilik, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К СТРАТЕГИЧЕСКОМУ УПРАВЛЕНИЮ ИННОВАЦИЯМИ

Шакирова Мадинахан

Международный университет Нордик

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические основы и концептуальные подходы к стратегическому управлению инновациями, а также их роль в современной экономической системе. Раскрыта сущность и содержание понятия «инновация», систематизированы научные подходы к его определению, проведено сопоставление трактовок инновации как процесса, результата, системы, инструмента и изменения. Кроме того, исследованы особенности стратегического управления инновациями в предпринимательских структурах, ключевые факторы формирования инновационного потенциала и нормативно-правовые основы. В статье проанализированы взгляды отечественных и зарубежных учёных (Комаров, Комков, Ассимова, Глазьев, OECD/Eurostat и др.), обоснована значимость системного и эволюционного подходов к управлению инновациями.

Ключевые слова: инновация, стратегическое управление, инновационная деятельность, инновационный потенциал, экономическое развитие, инновационный процесс, инновационная система, технологическое новшество, предпринимательство, конкурентоспособность.

THEORETICAL FOUNDATIONS AND CONCEPTUAL APPROACHES TO STRATEGIC INNOVATION MANAGEMENT

Shakirova Madinakhan
International Nordic University

Abstract. *This article examines the theoretical foundations and conceptual approaches to strategic innovation management and its role in the modern economic system. The essence and content of the concept of "innovation" are analyzed, and various scientific interpretations defining innovation as a process, result, system, tool, and change are systematized and compared. The study also explores the specific features of strategic innovation management in entrepreneurial entities, key factors in the formation of innovation potential, and the regulatory and legal framework. The article analyzes the views of both domestic and foreign scholars (Komarov, Komkov, Asimova, Glazyev, OECD/Eurostat, and others) and substantiates the importance of systemic and evolutionary approaches in innovation management.*

Keywords: *innovation, strategic management, innovation activity, innovation potential, economic development, innovation process, innovation system, technological advancement, entrepreneurship, competitiveness.*

Kirish.

Hozirgi kun dunyo iqtisodiyotini innovatsion yangiliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayni paytda jamiyat hayotida innovatsion soha shu darajada jadal rivojlanmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsiyalarning ulushi kundan kunga oshib borishi natijasida innovatsiya xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va inteluktual salohiyat kabi mamlakatning asosiy boyligiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, - "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo'ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o'ziga xos lokomotiv rolini bajaradi."¹ deb ishonamiz.

Komkovning (2020) ta'kidlashicha, "Innovatsiyalar innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining o'sishining harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi", Bikova (2022) esa "...barqaror tadbirkorlikning ajralmas tarkibiy qismidir va tashkilotlarning raqobatdosh ustunliklarini shakllantirishga, shuningdek, hududlar, milliy iqtisodiyotlar va umuman davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi."

Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning real iqtisodiy sharoitda innovatsiyalarni yaratish va rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi bir necha omillar mavjuddir. Bu omillarga quyidagilar kiradi: global raqobatning kuchayishi, pandemiyalarning salbiy oqibatlari va iqtisodiy sanksiyalarning kuchaytirilishi.

Shuningdek, iste'molchilarning mahsulot va xizmatlar sifatiga, shuningdek, narx va iste'mol qiymatiga bo'lgan talablari ortib bormoqda. Glazyev (2022) texnologik paradigmalarning o'zgarishi va yangi nano, biomuhandislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi mahsulotning hayot aylanishlarining qisqarishiga va biznes jarayonlarining tezlashishiga olib keladi. Buning uchun yangi ishlab chiqilgan mahsulotlar va ilgari taqdim etilgan xizmatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish, strategik ustuvorliklar va strategik imkoniyatlarni hisobga olgan holda boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar talab etiladi.

¹ O'zbekiston Milliy axborot agentligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr, <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

Tashkilotlar, xususan, kichik korxonalar doimiy ravishda turli muammolarga duch kelmoqdalar. Raqobat muhitining murakkabligi va beqarorligi sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tashqi salbiy omillar bilan bir qatorda tashkilotlarning mavjud resurslari, innovatsion salohiyati va vakolatlarini ham hisobga olish zarur. Shu bilan birga, innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida yuzaga kelayotgan muammolar tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni strategik boshqarish tizimini takomillashtirish, uning xususiyatlari hamda zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarini inobatga olgan holda uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish darajasining yetarli emasligi bilan ham izohlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etish jarayonining murakkabligi, bir tomondan, innovatsiya kontsepsiyasining jadal rivojlanishi, ikkinchi tomondan, mavjud yondashuvlarning turlicha talqin qilinishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, "innovatsiya", "innovatsion salohiyat", "innovatsion imkoniyatlar" kabi tushunchalar yagona, aniq ta'rifga ega emas. Shu sababli, zamonaviy ilmiy-amaliy muhitda innovatsion tushunchalar ko'pincha ilmiy munozaralar markazida bo'lib, ular dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan tashkilotlar, jumladan, tadbirkorlik amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Komarov (2012) o'zining "Innovatsiyalar nazariyasining asosiy qoidalari" nomli asarida innovatsiya tushunchasi ko'plab rus va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida markaziy o'rinni egallab kelayotganini ta'kidlaydi. Rossiya va xorijiy olimning fikricha, mamlakatlarda innovatsiyalar bilan bog'liq muammolarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni yildan-yilga ortib bormoqda hamda ushbu yo'nalish global iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Mazkur masalaga mahalliy iqtisodchi olimlar ham o'z e'tiborlarini qaratganlar. Jumladan, Asimova Feruza (2023) o'zining "Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning rivojlanish ko'rsatkichlari" nomli tadqiqot ishida "O'zbekiston sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruv tizimini har tomonlama tahlil qilgan. Tadqiqotda sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'rganilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda mavjud muammolari aniqlangan. Shuningdek, F. Asimova rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish asosida iqtisodiyotda innovatsiyalarni keng joriy etish jarayoni xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratishini asoslab bergan."

Shu munosabat bilan, Kojokar (2020) ta'kidlaganidek, "markaziy darajada ham, mintaqaviy darajada ham umumiy kontseptual vosita mavjud emas; bu borada mavjud ta'riflarning butun bir "kutubxonasini" shakllantirish mumkin". Mazkur fikr innovatsiya nazariyasi va amaliyotida yagona kontseptual bazaning shakllanmaganligini, shuningdek, bu yo'nalishda izchil metodologik asoslarni yaratish zaruratini ifodalaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy muammolarini hal qilish doirasida "innovatsiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish dolzarb kun tartibidir.

Normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo'lgan va amaliyotda qo'llaniladigan "innovatsiya" ta'riflarini umumlashtirib, biz innovatsiya innovatsion faoliyat natijasi sifatida qaraladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Birinchi marta 1992-yilda nashr etilgan Oslo qo'llanmasi innovatsion ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish bo'yicha muhim xalqaro ma'lumotnoma sifatida tan olingan. 2018-yilda Oslo qo'llanmaning yangilangan nashri chop etildi, OECD/Eurostat (2018) da "innovatsiya ma'lumotlarini to'plash va talqin qilish bo'yicha yo'riqnomalar, innovatsiyalarni tadqiq qilish va o'lchash uchun platformani taqdim etish, innovatsion ma'lumotlarning xalqaro taqqoslanishini ta'minlashdir. Oslo qo'llanmasining 4-nashrida innovatsiyani potentsial foydalanuvchilar (mahsulot) yoki amalga oshirilgan (jarayon) uchun mavjud bo'lgan, oldingi

mahsulot yoki jarayonlardan sezilarli darajada farq qiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki jarayon sifatida belgilaydi.”

“Innovatsiya” tushunchasi tarkibiy jihatdan murakkab. Shuning uchun uning mohiyatini ochish uchun turli yondashuvlardan foydalaniladi. Olimlar tomonidan zamonaviy innovatsion tushunchalarning asoschisi sifatida e’tirof etilgan avstriyalik iqtisodchi J.Shumpeterning kitobida biz innovatsiya mazmuni “o’zgarishlar”dan iborat ekanligini, innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi esa “o’zgarishlarni boshqarish funksiyasi” ekanligini ko’rishimiz mumkin. Binobarin, mohiyati nafaqat texnologiyalarda, balki ishlab chiqarishni tashkil etishda ham sifat o’zgarishlaridan iborat bo’lgan innovatsiyalar tadbirkor faoliyatining natijasidir.

Grinberg va Suxarevlar (2012) ta’kidlaganidek, “iqtisodiy rivojlanishning mohiyatini belgilovchi ushbu omillarni amalga oshirish butunlay ikki guruh shartlarning uyg’unligiga bog’liq: innovatsiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni qabul qilishdir”.

Innovatsiyani “o’zgarish funksiyasi” sifatida talqin etish, mazkur tushunchani jarayon nuqtai nazaridan ko’rib chiqishni asosli qiladi. Shu bilan birga, innovatsiya jarayon sifatida o’zining yakuniy natijasi — yangi mahsulot, yangi xizmat yoki yangi usul shaklida namoyon bo’luvchi “innovatsiya” tushunchasi bilan uzviy bog’liqdir. Demak, “innovatsiya” tushunchasini mohiyat e’tibori bilan ikki yo’nalishda talqin etish mumkin: bir tomondan — innovatsiya-jarayon, ikkinchi tomondan — innovatsiya-natija, ya’ni innovatsiya-mahsulot yoki innovatsiya-xizmat sifatida.

Mikro darajada tadbirkorlikdagi jarayon innovatsiyasi yangi texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish usullari hamda biznes jarayonlarining yangilanishini anglatadi. Mezo yoki makro darajada esa, bu jarayonlar bozor tuzilmasining o’zgarishi yoki mutlaqo yangi bozorlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Agar innovatsiyalarni tadbirkorlik sektori nuqtai nazaridan natija sifatida ko’rib chiqilsa, u holda ular yangi mahsulot yoki xizmatlarning paydo bo’lishi bilan cheklanmaydi. Innovatsiyalar tizimida nazariy va uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi bu sohada ilmiy izlanishlarning keng ko’lamda olib borilayotganligini ko’rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsion tushunchalarni tahlil qilishning evolyutsion usuli tarixiy yondashuv asosida innovatsiyalar nazariyasi evolyutsiyasini yaxlit tushunish imkonini beradi. Innovatsion kontseptsiyalarni tahlil qilishning maqsadli usuli dissertatsiyaning nazariy va amaliy vazifalarini hal qilish kontekstida asosiy innovatsion tushunchalarni tushunish imkonini beradi.

Ivashenko (2021) boshqa mualliflar bilan birgalikda innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishining to’rtta asosiy bosqichini belgilaydi:

- birinchi bosqich (XIX-asr oxiri - 1940-yillar) - innovatsiyalar mohiyati va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini o’rganish;

- ikkinchi bosqich (XX-asrning 40-70-yillari) - innovatsiyalarni boshqarish funktsiyalarini o’rganish;

- uchinchi bosqich (1970-yillar - XXI-asr boshlari) - innovatsiyalarni tushunishga tizimli yondashuv, shu jumladan ochiq innovatsiyalar va tarmoq modellari asosida innovatsion ekotizimlarni shakllantirish;

- to’rtinchi bosqich (XXI-asr boshi - hozirgi) - innovatsiyalarning yangi davri: to’rtinchi sanoat inqilobi doirasidagi raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar va platforma echimlariga o’tish.

Innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichiga oid ilmiy tadqiqotlarning asosiy g’oyasi bozor iqtisodiyotining tsiklik xarakterdagi rivojlanish qonuniyatlari bilan bevosita bog’liqdir. Bu nazariyaga ko’ra, iqtisodiy tizimlar o’z rivojlanishida doimiy tsikli harakatni namoyon etadi, ya’ni “ko’tarilish – pasayish – ko’tarilish” bosqichlari ketma-ket takrorlanib boradi. Mazkur jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalar e’tirof etiladi. Ular iqtisodiy o’sishning asosiy omili bo’lib, uzoq to’lqinlar (Kondratyev to’lqinlari) va

tsiklik inqirozlar nazariyasiga muvofiq iqtisodiy tizimlarning yangilanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Boshqacha aytganda, innovatsiyalar faqat iqtisodiy jarayonlarning natijasi emas, balki ularning sababiy harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois, innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Aynan shu davrda N.D.Kondratyev «uzoq to'liqlar» ni kashf etdi, Y. Shumpeter «innovatsiya» tushunchasini «ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy va ishlab chiqarish kombinatsiyasi» sifatida ilmiy muomalaga kiritdi, uning mohiyatini shakllantirdi, innovatsion jarayonda tadbirkorlikning yangi rolini asosladi, innovatsiyalarning hayot aylanishini «ijodiy halokat jarayoni» deb izohladi, texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq holda «innovatsion tadbirkorlar» va «konservativ tadbirkorlar»ni ajratib ko'rsatdi, bu tadbirkorlik nazariyasini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

QingruiX va boshqalarning (2007) ta'kidlashicha, "Umumiy innovatsiyalarni boshqarish: XXI asrda innovatsiyalarni boshqarishning yangi paradigmasi" maqolasida "ekotizimlar nazariyasi va innovatsiyalarning "uchligi" tamoyiliga asoslangan TIM (Technology Innovation Management) kontseptsiyasining mohiyati barcha elementlarda innovatsiyalar birligidan iborat: strategiya, madaniyat, tashkilot, institutlar, jarayonning barcha ishtirokchilarining birligi, innovatsiyalarning vaqt va makondagi birligi. TIM kontseptsiyasining asosiy maqsadi texnologik, marketing, tashkiliy (tuzilmaviy) va institutsional (faoliyatni tartibga soluvchi qoidalardagi innovatsiyalar) o'rtasida sinergik ta'sirga erishish orqali innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratishdir. «4-W» modeli (qachon, qayerda, nima, butun) ko'rib chiqiladi - qachon, qayerda, nima, qanday yaxlitlikda innovatsiyalar makon va vaqtni qamrab olish nuqtai nazaridan qo'llaniladi."

Innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishining uchinchi bosqichi:

innovatsiyalarni tasniflash turlari bo'yicha tadqiqot sohasida haqiqiy yangi nazariy yutuq bilan tavsiflanadi;

innovatsiyaning tizimli hodisa sifatida mohiyatini tahlil qilish;


milliy innovatsion tizimlar kontseptsiyasi asoslarini shakllantirish;

texnologik paradigmalar kontseptsiyasini ishlab chiqish va "yangi iqtisodiyot" sohasida tizimli tadqiqotlarni shakllantirish.

O'sish bosqichining oxirida innovatsion potentsial tugaydi va shuning uchun ko'proq mahsulot va texnologik jarayonlarni ma'lum darajada yaxshilashga qodir bo'lgan innovatsiyalar, shuningdek, foydaliligidan oshib ketgan texnologiyalar, ya'ni psevdoinnovatsiyalar deb ataladi. Psevdoinnovatsiyalar allaqachon eskirgan uskunalar va texnologiyalarning eskirgan modellarini takomillashtirishga qaratilgan (1-rasm).

Yakovest (2015) innovatsiyalarni uchta xususiyatga ko'ra tasniflaydi: obyektlar, yangilik darajasi va tarqalish sohasi. Eng keng tarqalgani texnologik innovatsiyalar bo'lib, ular ikki turga bo'linadi: mahsulot innovatsiyalari (yangi turdagi tovarlar va xizmatlar) va texnologik innovatsiyalar (ma'lum bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish uchun yangi yoki o'zgartirilgan texnologiyalar). Odatda katta xarajatlarni talab qilmaydigan aniq innovatsiyalar mikro darajada, alohida tashkilotlarda qo'llaniladi.

Mahalliy va mintaqaviy innovatsiyalar mezo darajasida qo'llanilishi mumkin: ayrim sohalarda va ayrim mintaqalarda ularning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda. Milliy innovatsiyalar mamlakat darajasida qo'llaniladi. Raqamli texnologiyalar kabi global innovatsiyalar butun dunyoda tez tarqalmoqda. Innovatsiyalar ko'lami qanchalik katta bo'lsa (mahalliydan globalgacha), ular talab qiladigan investitsiyalar hajmi qanchalik katta bo'lsa, xavflar shunchalik katta bo'ladi va, albatta, kutilayotgan (potentsial) ta'sirlar shunchalik katta bo'ladi.



1-rasm. Innovatsiyalar tasnifi

Manba: muallif ishlanamasi.

Robert Taker (2006) "innovatsiya o'sish formulasi sifatida: yetakchi kompaniyalarning yangi kelajagi" deb nomlangan tadqiqotida innovatsiyalarning uch turini ta'kidlaydi: mahsulot innovatsiyasi, jarayon innovatsiyasi, strategiya innovatsiyasi. Uning fikricha, "raqobatning kuchayishi va XXI asrga xos texnologiya o'zgarishining tezlashishi sharoitida iqtisodiy o'sishga erishish faqat "innovatsiyalarning ushbu uch xil jihatini boshqarishga qodir" bo'lsagina mumkin bo'ladi."

Strategik innovatsiyalar "mijozlar uchun qiymat yaratishning mavjud sanoat usullarini qayta ko'rib chiqish" natijasidir. «Innovatsiya strategiyasi» ning maqsadi - maqsadli iste'molchilar guruhlariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yoki bozorda mahsulotlarni joylashtirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali yangi iste'molchilar guruhlari qiziqishlariga erishishdir.

Innovatsiyalarning uch turi orasida Robert Taker (2006) "jarayon innovatsiyasi har qanday kompaniyaning rivojlanishi uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi, chunki jarayonni takomillashtirishsiz mahsulot innovatsiyasi yoki strategik innovatsiyani amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga, u jarayon innovatsiyasi, masalan, mahsulot innovatsiyasidan farqli o'laroq, "ishlatilmagan hudud" bo'lib qolmoqda," deb ta'kidlaydi.

Muhim innovatsiyalar tashkilot uchun ham, iste'molchi uchun ham yangi qiymat yaratishga yutuq innovatsiyasiga qaraganda kamroq ta'sir qiladi. Shu bilan birga, muhim

innovatsiyalar biznesni rivojlantirish, uning bozordagi mavqeini mustahkamlash, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish, iste'molchilar uchun sezilarli yaxshilanishlarni yaratish bilan bog'liq sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtgacha "innovatsiya" tushunchasiga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Bu borada "innovatsiya"ni aniqlashga doir beshta yondashuv mavjud. Innovatsiyalar quyidagicha ko'rib chiqiladi: tizim sifatida, jarayon sifatida, o'zgarish sifatida, vosita sifatida, natija sifatida. Muhimi, innovatsiyalar sohasidagi ilmiy adabiyotlarni evolyutsion va maqsadli usullar yordamida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "innovatsiya" tushunchasi – innovatsiyalar nazariyasini shakllantirish va rivojlantirishning birinchi bosqichida ilmiy aylanishga kiritilgan va butun dunyo olimlari tomonidan nazariyaning barcha rivojlanish bosqichlarida diqqat markazida bo'lgan. Ularning ko'pchiligi bu tushunchani to'ldirib, mohiyatini yanada aniqlashtirgan. (1-jadval)

1-jadval

"Innovatsiya" tushunchasining asosiy yondashuvlar doirasida ayrim mualliflar tomonidan berilgan ta'riflari

"Innovatsiya" tushunchasini aniqlashga yondashuv	"Innovatsiya" tushunchasining ta'rifi
Innovatsiya tizim sifatida	Lapin (2008) "Innovatsiya – bu yaxlit, ichki ziddiyatli va dinamik tizim"
Innovatsiya jarayon sifatida	Santo (1990) "Innovatsiya — bu ijtimoiy-texnika-iqtisodiy jarayon bo'lib, u g'oyalar va ixtirolarni amaliy qo'llash orqali xossalari jihatidan yaxshilangan mahsulotlar, texnologiyalarni yaratishga olib keladi. Agar innovatsiya iqtisodiy foyda (daromad) olishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad keltirishi mumkin."
Innovatsiya o'zgarish sifatida	Vodachek (1989) "Innovatsiya - bu tizim sifatida tashkilot faoliyatining maqsadli o'zgarishi (miqdoriy yoki sifat o'zgarishi)."
Innovatsiya vosita sifatida	Druker (2007) "Innovatsiyalar - bu tadbirkorlarning maxsus quroli, ular o'zgarishlardan biznes yoki xizmatning yangi turini amalga oshirish imkoniyati sifatida foydalanadigan vosita."
Natijada innovatsiyalar	Abdraxmanova (2012) "Innovatsiya — bu innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi bo'lib, u quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lgan: yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat), ishlab chiqarish jarayoni, marketing yoki tashkiliy usul — biznes yuritishda, ish joylarini tashkil etishda yoki tashqi aloqalarda."

Manba: muallif ishlanamasi.

Mualliflar innovatsiyalarni natija sifatida ko'rib chiqadigan olimlarning fikri bilan rozi bo'lib, "faqat innovatsion jarayonning yakuniy natijasi haqqoniy ravishda innovatsiya deb atalishi mumkin" deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular natijaviy yondashuv "innovatsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyatini kontseptual jihatdan aniq va metodologik jihatdan batafsil ochib beradi" deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya – bu innovatsion jarayonning yakuniy natijasi bo'lib, u inson faoliyati va jamiyat hayotining turli sohalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi mahsulotlar, ilg'or texnologiyalar, tashkiliy va boshqaruv yechimlari shaklida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ba'zi nashrlarda mualliflar "innovatsiya" tushunchasini bir vaqtda ham jarayon, ham natija sifatida aniqlash yondashuvini asosli deb hisoblaydilar.

Komarov (2012) o'zining «Innovatsiyalar nazariyasining asosiy qoidolari» nomli kitobida innovatsiyalar nazariyasini turli ilmiy maktablar va yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi hamda ularni yagona yondashuv asosida umumiy innovatsiyalar nazariyasiga

integratsiya qilish g'oyasini ilgari suradi. Muallifning fikricha, "...bunday yondashuv sifatida dinamik tizimli ko'p darajali yondashuvni taklif etish mumkin. Ushbu yondashuvni qo'llash innovatsion tizimning asosiy qonuniyatlarini mega-, makro-, mezo- va mikrodarajalarda tadqiq etishga imkon beradi."

Xulosa va takliflar.

Innovatsiya – bu yangi mahsulotlar, ilg'or texnologiyalar, biznes yuritish usullari hamda boshqaruv modellarini yaratish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan innovatsion jarayonlar majmuasining yakuniy natijasidir. U nafaqat texnik yoki texnologik yangilikni, balki iste'molchilar uchun yangi qiymat yaratish, iqtisodiy subyektlarning faoliyat samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Innovatsiya, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari uchun strategik ahamiyat kasb etib, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytiradi, yangi bozor segmentlariga kirib borish imkonini yaratadi hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga qo'shiladigan hissasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy tizimning barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Shu tariqa, "innovatsiya" tushunchasini aniqlashga doir turli yondashuvlarni o'rganish natijasida xulosa qilish mumkinki, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini talqin etish asosan tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmetiga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar/Literature/Reference:

OECD/Eurostat. (2018). *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation* (4th ed.). Paris/Luxembourg: OECD Publishing/Eurostat.

Абдурахманова, Г.И., Городникова, Н.В., & Гокхберг, Л. (Эдс.). (2012). *Экономика знаний в терминах статистики: наука, технологии, инновации, образование, информационное общество*. –Moscow: Экономика.

Бйкова, Л. (2022). Инновации как фактор социально-экономического развития регионов. *Конкурентоспособность в глобальном мире: экономика, наука, технологии*, (2), 26–28.

Водачек, Л., & Водачкова, О. (1989). *Стратегия управления инновациями на предприятии* (В. С. Рапопорт, Интро.). Moscow: Экономика.

Глазев, С.Ю. (2022). Ноономика как стержень формирования нового технологического и мирохозяйственного укладов. *Ноономика и ноообщество. Альманах трудов ИНИР им. С. Ю. Витте*, 1(1), 43–64.

Гринберг, Р.С., & Сукхарева, О.С. (2012). *Эволюционная экономика* Н. Д. Кондратъева. *Ин Кондратъевскиэ волни: аспекти и перспективй* (пп. 12–36). Волгоград: Учитель.

Друскер, П.Ф. (2007). *Бизнес и инновации* (К. С. Головинский, Эд. & Транс.). Moscow: Williams.

Ивашченко, Н.П. (Эд.). (2021). *Экономика инноваций: учебно-методическое пособие для бакалавров*. Moscow: Экономический факультет МСУ им. М. В. Ломоносова.

Козхокаръ, И.П. (2020). Инновации и инновационная деятельность: правовой аспект. *Трудй Института государства и права РАН*, 15(3), 141–187.

Комаров, В.М. (2012). *Основные положения теории инноватсий*. Moscow: Издательский дом «Дело» РАНХиГС.

Комков, Н.И., & Кулакин, Г.К. (2020). Влияниэ инновационной и технологической активности организаций на объём выпуска инновационных товаров и рост производительности труда. *Проблемй прогнозирования*, (4), 29–40.

Кингруи, Х., Жин, С., Зханшу, Х., Жингжуанг, Л., Ганг, З., & Ёнг, W. (2007). *Total Innovation Management: A novel paradigm of innovation management in the 21st century*. *Journal of Technology Transfer*, 32, 9–25.

Лапин, Н.И. (2008). Теория и практика инноватики: учебное пособие для студентов ВУЗов. Мосcow: Логос.

Санто, Б. (1990). Инновация как средство экономического развития (Б. В. Сазонов, Эд. & Интро.). Мосcow: Прогресс.

Тускер, Р.Б. (2006). Инновации как формула роста: новое будущее ведущих компаний. Мосcow: Олимп-Бизнес.

Феруза Асимова. (2023). Саноат корхоналарида инновацион фаолиятнинг ривожланиш кўрсаткичлари. Саноатда рақамли технологиялар / Цифровые технологии в промышленности, 1(1), 139–143. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8379240>

Яковец, Ю.В. (2015). Грамматика инноваций и стратегия инновационно-технологического прорыва. Инновации, (6 [200]), 15–19.